

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53408-4.02

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**SOLIQNI PROGNOZ QILISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Almardonov M.,
k.o'q. Abdullaev X.

Taqrizchilar: dots. Saidxo'jaev P.,
dots. Usanov A.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini tartibga soluvchi vositalarni vujudga keltirish va mustahkamlash, iste'mol bozorini barqarorlashtirish va pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashga, mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga iqtisodiy integratsiyalashuvini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida davlatning to'g'ri va adolatli soliq siyosati alohida o'rinni egallaydi.

"Soliqni prognoz qilish" o'quv fani soliq tushumlarini tahlil qilish soliq elementlarini, soliq ob'ektlarini to'g'ri aniqlash va shu asosda soliq tushumlarini prognozlashga xizmat qiladi. Soliqlarni prognozlashdan maqsad keyingi davr uchun byudjet parametrlarini aniqlash va ularga zarur o'zgartirishlar kiritishdan iborat.

На основе государственного стандарта Высшего образования по направлению "Налоги и налогообложение", дисциплина "Налоговое прогнозирование" является профилирующим предметом. В процессе преподавания этой дисциплины раскрываются такие темы, как характеристика уплаты юридическими и физическими лицами налоговых и неналоговых платежей, в том числе исчисление и уплата налоговых и неналоговых платежей. В сущности, исчисление, предоставление расчетов и способы уплаты юридическими и физическими лицами налоговых и неналоговых платежей изучается на основе практики.

After the achievement independence of The Republic of Uzbekistan all democratic changes have happened and based on priority of law and respect to law and teach obeying to law. Tax right is going to have its own task in this program.

The most aims of entering of subject of "prognozation of taxes" in to teaching plan are improving students' knowledge and brain of right, to explain main concepts and terms of prognozation of taxes, to teach using of them and obligations and ability in practise.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Bu masalani echish soliq tushumlarining ob'ektiga va soliq bazasiga bevosita bog'liq. "Soliqni prognoz qilish" o'quv fanining asosiy maqsadi - soliqlar va yig'imlar tushumini, soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarni chuqur o'rganish va shu asosda byudjet tushumlari ob'ektlarini har birini alohida, shuningdek, ularning umumiy hajmini ma'lum davr uchun prognozlashdan iborat.

Olib borilgan tahlil va prognozlash asosida xo'jalik sub'ektlari va aholining davlat bilan o'zaro soliq munosabatlarini tartibga soluvchi soliq qonunchiligini mukammallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishni o'rganish mazkur o'quv fanining muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi. Binobarin, o'z vaqtida kiritilgan va qonuniy tartibda qabul kilingan takliflar iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

"Soliqni prognoz qilish" fani "Soliq nazariyasi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Chet mamlakatlar soliq tizimi" kabi qator fanlar bilan uzviy bog'langan.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

"Soliqni prognoz qilish" fani talabalarga korxonalar va hududlar miqyosidagi moliyaviy va xo'jalik hisobotlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ulardan ma'lum xulosalar chiqarish, istiqbolli davr uchun soliq tushumlarini prognoz qilish va xulosalar chiqarish, prognoz hisoblariga ta'sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy omillarni aniqlashga oid bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu o'quv fani talabalardan yuqori bilim darajasini, iqtisodiy mushohada qila olish qo'ibilyatini talab qiladi. Shuningdek, talabalarga Davlat soliq qo'mitasi, Davlat soliq boshqarmalari, Davlat soliq inspeksiyalari hisobot materiallarini tahlil qilish va shu tahlillar asosida mustaqil ravishda soliq tushumlarini prognoz qilishni o'rgatadi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzularidan talabalar tegishli tartibda tanlab olib, bu mavzular bo'yicha referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashlari hamda amaliy mashg'ulotni olib boruvchi professor-o'qituvchi nazoratida tayyorlangan ishlar yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tishlari lozim. Ushbu talablar amaliy

mashg'ulotlar mavzularidagi yulduzcha bilan ajratib ko'rsatilgan kichik mavzular bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 129, shu jumladan 48 - ma'ruza, 38 – amaliy, 43 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. "Soliqni prognoz qilish" fani bo'yicha olingan bilimlar talabalarni keyinchalik amaliy faoliyatda muammolarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib, kasbiy malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Soliqni prognoz qilish" fanidan talabalarning bilimni baholash to'rt marta oraliq, to'rt marta joriy, hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma shaklida tashkil etiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Soliqni prognoz qilish" fanini o'qitishida kompyuterlardan, audio va video jihozlardan, diproektor va kodoskoplardan, shuningdek, turli jadvallar hamda slaydlardan foydalanish talab etiladi.

2. FAN DASTURI

"Soliqni prognoz qilish" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzusi

Soliq tushumlarining tahlili

Soliq tushumlari tahlilining maqsadi va vazifalari. Soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarning soliq turlari bo'yicha tarkibi. Ularning rivojlanishi va o'zgarish tendentsiyasini o'rganish zarurligi. Byudjet daromadlarini shakllantirishda, iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etishda tahlil natijalaridan foydalanish. Tahlil natijalaridan davlat byudjeti parametrlarini o'z vaqtida va asoslangan holda tuzishda foydalanish. Soliqqa oid qonun hujjatlarini ishlab chiqishda soliq tushumlari tahlili natijalaridan foydalanish.

Soliqqa tortiladigan baza va uning elementlari tahlili

Soliqqa tortiladigan baza va uning tashkil etuvchi elementlari. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash usullari. Soliq turlari bo'yicha soliq bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi va uning soliq bazasiga ta'siri. *Korxonalarining son va sifat jihatidan o'zgarishining soliq turlari bazasi hajmiga ta'sirining tahlili. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy*

shaxslar to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi va uning tahlili. Qo'shilgan qiymat solig'i. Foyda (daromad) solig'i. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i va boshqa soliqlarning soliqqa tortiladigan bazalarini yo'riqnomalar orqali o'rganish va tahlil etish.

Yig'ma jadvallar tuzish uslubi

Yig'ma jadvallarning mazmuni va uni tuzishdan maqsad. Yig'ma jadvallarning turlari. Tahlilning maqsadi va vazifalariga qarab ko'rsatkichlar kiritish. Hududlar, korxonalar, soliq turlari bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish. Korxonalar faoliyati turlari; mulk shakllari va boshqa belgilariga ko'ra yig'ma jadvallar tuzish uslubiyoti.

Soliq to'lovchilar guruhlarini bo'yicha soliq tushumlari tahlili

Soliq to'lovchilarni guruhlash, korxonalarining faoliyat turlariga qarab soliq tushumlari tahlili. *Korxonada buxgalteriya hisoboti asosida moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari. Korxonada soliq tushumlariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar. Alohida ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdorlardan katta farqlanishlar sabablarini o'rganish. Jismoniy shaxslardan soliq tushumlari. Hududlar bo'yicha (Respublika, viloyat, shahar, tuman) soliq tushumlari tahlili.*

Soliq to'lovlarining korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri tahlili

Faoliyat turlariga qarab korxonalarini soliqlar va to'lovlar ta'siri bo'yicha jadvallar tuzish (5 ta). *Jami soliqlar va to'lovlar yig'indisining salmog'ini har xil ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlash. To'g'ri va egri soliqlarning jami soliq yukidagi salmog'i. Egri soliqlarning mahsulot (ish, xizmat) tannarxi, sotish hajmi va boshqa soliq turlari bazasini shakllanishiga ta'siri. To'g'ri va resurs soliqlari hajmining korxonada moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganish.*

Yuridik shaxslarning foyda (daromad) solig'i bo'yicha o'rtacha stavkasini aniqlash

Har xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlash zarurligi. *Aniq materiallar asosida foyda (daromad) solig'i bo'yicha hisoblangan o'rtacha soliq stavkasining har xil korxonalarda aniq stavka va haqiqatda foydadan farqlanish sabablari va ularning tahlili.*

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlash

Turli faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar misolida qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortiladigan bazasini aniqlash. Soliqqa tortiladigan oborotlarni aniqlash. *Soliqqa*

tortilmaydigan oborotlar. Har xil stavkalar bo'yicha alohida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash. Qo'shilgan qiymat solig'ining o'rtacha soliq stavkasini aniqlash. O'rtacha stavkaga ta'sir etuvchi omillar. O'rtacha soliq stavkasi asosida byudjetga soliq tushumlarini aniqlash.

Soliq tushumlarining prognozi

Soliq tushumlarini prognozlashning ahamiyati va vazifalari. Soliq tushumlarini prognozlashning zarurligi. *Prognozning ehtimoliy va istiqbol tabiati. Prognoz hisoblari uchun asos bo'luvchi materiallar. Soliq tushumlarini prognozlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish tartibi.*

Iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari

Prognoz davriga qarab prognoz turlari. Soliq tushumlarining prognoz summalariga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillari. Ularni bilish va ta'sirini oldindan aniqlay olish(ko'ra olish). *Prognoz jarayonlarining va tendentsiyalarining barqarorligi. Ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini tuzish. Iqtisodiy xususiyatlarning hisobga olish. Soliq tushumlari prognozi barqaror bo'lmagan iqtisodiy jarayonlarga ta'siri.*

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash

Prognoz hisoblarining ma'lum tartibi. Ularning zarurligi. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash uchun zaruriy ko'rsatkichlar tarkibi. *Xodimlar soni, mehnat xaqining o'rtacha miqdori. Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar. Har bir omilning ta'siri tahlili. Inflyatsiya darajasi hisobi. Mehnatga haq to'lashning inflyatsiya darajasidan ortda qolish koeffitsenti. Jismoniy shaxslar daromad solig'i prognoz summasini hisoblash tartibi. Prognoz summasining ehtimollik darajasi.*

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash

Soliqni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tarkibi. *Prognoz summalariga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'siri. Tadbirkorlik turlarini prognoz qilish summasiga ta'siri.*

Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini prognozlash

Daromad (foyda) solig'ini prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tarkibi. *Yalpi foydani aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarish hajmining o'sish darajasi. Tovar aylanishining o'sish darajasi. Xizmat ko'rsatish va ish bajarishning o'sish darajalari. Hisobot davri uchun yalpi foyda. Soliqdan berilgan imtiyozlarning daromad (foyda) solig'i prognozi summasiga ta'siri.*

Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini prognozlash

"Qo'shilgan qiymat" tushunchasi. Qo'shilgan qiymat tarkibi. *Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari turlari. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz tushumlarining hisobi uchun jadval tuzish. Moddiy soha xodimlari MHF hisobi. Aktsiz solig'i summasini prognoz qilish.* Aktsiz osti mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi. Ko'zda tutilayotgan ulgurji narxlar. Amortizatsiyaning prognoz miqdorlarini aniqlash. Asosiy fondlarning yangilanish va eskirish darajasi. Ishlab chiqarish vositalariga narxlarning o'zgarishi. Inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi. Qo'shilgan qiymatning jami summasi. Prognoz davri uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi.

Soliqlar va to'lovlar yig'indisini prognozlash

Soliq tushumlari prognoz summalari asosida yig'ma jadval tuzish, daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, boshqa soliqlar va to'lovlar tushumlarini aniqlash uslubi. *Ularning hisobot davridagi salmog'i. Prognoz davri uchun umumiy tushumlar hisobi.*

Soliq organlarida prognozni tashkil etish. Soliq tushumlari hisobi va nazoratini yuritish

Soliq tushumlarini tahlili va prognoz bo'yicha soliq organlarining vazifalari. Soliq inspeksiyalarida prognoz bo'limi ishlarini tashkil etish. Tahlil va prognoz bo'yicha majburiyatlari. Amaldagi soliq qonunchiligiga o'zgartirish kiritish uchun takliflar ishlab chiqish. Tahlil natijalaridan korxonalarda hujjatli tekshiruvlar o'tkazishni tanlashda foydalanish. Soliq to'lovlari to'liqligini aniqlash.

Soliqlar va to'lovlar tushumi hisobini yuritish

Tezkor buxgalteriya hisobini yuritish. Soliqlar va moliyaviy jarimalar hisobini yuritish. Byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasi bo'limi, bandlei. Soliq organlariga buxgalteriya hisobotlari va hisoblarini taqdim etish. Avans to'lovlar, ma'lumotnomalar, penyalarning qo'llanilishi. Soliqlarni undirish bo'yicha to'lov xabarnomalari. *Inkassa talabnomalari bo'yicha qaydnoma daftari. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash tartibi. Daromadlarni deklaratsiyalash.* Er solig'i va mulk solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari. Yig'ma reestrlar. Shaxsiy varaqalar.

Soliq organlarining soliq va to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida undirishi ustidan nazorati

Soliq organlarida nazoratni tashkil etish. Moliyaviy jazolar, ma'muriy jarimalar qo'llanilishi tahlili. *Prognoz bo'limida soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy jarimalarning qo'llanilishi tahlili.*

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI

Soliq tushumlarining tahlili

Soliq tushumlari tahlilining maqsadi. Soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarning soliq turlari bo'yicha tarkibi*. Ularning rivojlanishi va o'zgarish tendentsiyasini o'rganish zarurligi. Byudjet daromadlarini shakllantirishda, iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etishda tahlil natijalaridan foydalanish. Tahlil natijalaridan davlat byudjeti parametrlarini o'z vaqtida va asoslangan holda tuzishda foydalanish*.

Soliqqa tortiladigan baza va uning elementlari tahlili

Soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlari. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash usullari. Soliq turlari bo'yicha soliq bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi va uning soliq bazasiga ta'siri. Korxonalarining son va faoliyatning sifat jihatidan o'zgarishining soliq turlari bazasi hajmiga ta'sirining tahlili. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi va uning tahlili. Foyda (daromad) solig'i; jismoniy shaxslar daromad solig'i va boshqa soliqlarning soliqqa tortiladigan bazalarini yo'riqnomalar orqali o'rganish va tahlil etish*.

Yig'ma jadvallar tuzish uslubi

Yig'ma jadvalning mazmuni va uni tuzishdan maqsad. Yig'ma jadvallarning turlari. Tahlilning maqsadi va vazifalariga qarab ko'rsatkichlar kiritish*. Hududlar, korxonalar, soliq turlari bo'yicha yig'ma jadvallar. Korxonalar faoliyati turlari; mulk shakllari va boshqa belgilariga ko'ra yig'ma jadvallar tuzish uslubiyoti*.

Soliq to'lovchilar guruhlari bo'yicha soliq tushumlari tahlili

Soliq to'lovchilarni guruhlash, korxonalarining faoliyat turlariga qarab soliq tushumlari tahlili. Korxonada buxgalteriya hisoboti asosida moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari*. Korxonada soliq tushumlariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar. Alohida ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdorlardan katta farqlanishlar sabablarini o'rganish. Jismoniy shaxslardan soliq tushumlari. Hududlar bo'yicha (Respublika, viloyat, shahar, tuman) soliq tushumlari tahlili*.

Soliq to'lovlarining korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri tahlili

Faoliyat turlariga qarab korxonalarini soliqlar va to'lovlar ta'siri bo'yicha jadvallar tuzish (5 ta). Jami soliqlar va to'lovlar yig'indisining salmog'ini har xil ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlash*. To'g'ri va egri soliqlarning jami soliq yukidagi salmoqlari*. Egri soliqlarning mahsulot (ish, xizmat) tannarxi, sotish hajmi va boshqa soliq turlari

bazasining shakllanishiga ta'siri. To'g'ri va resurs soliqlari hajmining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganish.

Yuridik shaxslarning foyda(daromad) solig'i bo'yicha o'rtacha stavkasini aniqlash

Har xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkani aniqlash zarurligi*. Aniq materiallar asosida foyda(daromad) solig'i bo'yicha hisoblangan o'rtacha soliq stavkasining har xil korxonalarda aniq stavka va haqiqatda foydadan farqlanish sabablari va ularning tahlili*.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlash

Turli faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar misolida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani aniqlash*. Soliqqa tortiladigan oborotlarni aniqlash. Soliqqa tortilmaydigan oborotlar. Har xil stavkalar bo'yicha alohida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash. Qo'shilgan qiymat solig'ining o'rtacha soliq stavkasini aniqlash*. O'rtacha stavkaga ta'sir etuvchi omillar. O'rtacha soliq stavkasi asosida byudjetga soliq tushumlarini aniqlash.

Soliq tushumlarining prognozi

Soliq tushumlarini prognozlashning ahamiyati va vazifalari. Soliq tushumlarini prognozlashning zarurligi. Prognozning ehtimoliy va istiqbol tabiati*. Prognoz hisoblari uchun asos bo'luvchi materiallar. Soliq tushumlarini prognozlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish tartibi*.

Iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari

Prognoz davriga qarab prognoz turlari*. Soliq tushumlarining prognoz summalariga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ularni bilish va ta'sirini oldindan aniqlay olish(ko'ra olish). Prognoz jarayonlarining va tendentsiyalarining barqarorligi*. Ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini tuzish. Iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish. Soliq tushumlari prognozining barqaror bo'lmagan iqtisodiy jarayonlarga ta'siri.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash

Prognoz hisoblarining ma'lum tartibi. Ularning zarurligi. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash uchun zaruriy ko'rsatkichlar tarkibi*. Xodimlar soni, mehnat haqining o'rtacha miqdori. Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar. Har bir omilning ta'siri tahlili. Inflyatsiya darajasi hisobi. Mehnatga haq to'lashning inflyatsiya darajasidan ortda qolish koeffitsienti*. Jismoniy shaxslar daromad solig'i prognoz summasini hisoblash tartibi. Prognoz summasining ehtimollik darajasi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash

Soliqni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tarkibi. Prognoz summalariga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'siri*. Tadbirkorlik turlarini prognoz qilish summasiga ta'siri*.

Yuridik shaxslarning (daromad) foyda solig'ini prognozlash

Daromad (foyda) solig'ini prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tarkibi. Yalpi foydani aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarish hajmining o'sish darajasi*. Tovar aylanishining o'sish darajasi. Xizmat ko'rsatish va ish bajarishning o'sish darajalari*. Hisobot davri uchun yalpi foyda. Soliqdan berilgan imtiyozlarning daromad (foyda) solig'i prognozi summasiga ta'siri.

Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini prognozlash

"Qo'shilgan qiymat" tushunchasi. Qo'shilgan qiymat tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari turlari. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz tushumlarining hisobi uchun jadval tuzish*. Moddiy soha xodimlari MHF hisobi. Aktsiz solig'i summasini prognoz qilish. Aktsiz osti mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi. Ko'zda tutilayotgan ulgurji narxlar. Amortizatsiyaning prognoz miqdorlarini aniqlash. Asosiy fondlarning yangilanish va eskirish darajasi. Ishlab chiqarish vositalariga narxlarning o'zgarishi. Inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi. Qo'shilgan qiymatning jami summasi. Prognoz davri uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi*.

Soliqlar va to'lovlar yig'indisini prognozlash

Soliq tushumlarini prognozi summaları asosida yig'ma jadval tuzish, daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, boshqa soliqlar va to'lovlar tushumlarini aniqlash uslubi*. Ularning hisobot davridagi salmog'i. Prognoz davri uchun umumiy tushumlar hisobi*.

Soliq organlarida prognozni tashkil etish. Soliq tushumlari hisobi va nazoratini yuritish

Soliq tushumlarining tahlili va prognozi bo'yicha soliq organlarining vazifalari. Soliq inspeksiya organlarida prognoz bo'limi ishlarini tashkil etish*. Tahlil va prognoz bo'yicha soliq inspeksiya organlarining majburiyatlari. Amaldagi soliq qonunchiligiga o'zgartirish kiritish uchun takliflar ishlab chiqish. Tahlil natijalaridan korxonalarda hujjatli tekshiruvlar o'tkazishni tanlashda foydalanish. Soliq to'lovlari to'liqligini aniqlash*.

Soliqlar va to'lovlar tushumi hisobini yuritish

Tezkor buxgalteriya hisobini yuritish. Soliqlar va moliyaviy jarimalar hisobini yuritish. Byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasi bo'limi, bandle. Soliq

organlariga buxgalteriya hisobotlari va hisoblarini taqdim etish*. Avans to'lovlar, ma'lumotnomalar, penyalarning qo'llanilishi. Soliqlarni undirish bo'yicha to'lov xabarnomalari. Inkassa talabnomalari bo'yicha qaydnoma daftari. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash tartibi. Daromadlarni deklaratsiyalash. Er solig'i va mulk solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari. Yig'ma reestrlar*. Shaxsiy varaqalar.

Soliq organlarining soliq va to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida undirishi ustidan nazorati

Soliq organlarida nazoratni tashkil etish. Moliyaviy jazolar, ma'muriy jarimalar qo'llanilish tahlili*. Prognoz bo'limida soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy jarimalarning qo'llanilishi tahlili.

4. INFORMATSIION-TEXNIK VOSITALAR

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan, foydalanish ko'zda tutilgan:

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Dioproektor;
4. Kodaskop;
5. Internet tarmog'i saytlari:

- E-mail: mail@finstat.ru
<http://www.finstat.ru/>
- E-mail: valeo@etel.ru
- <http://www.alpbook.ru/>
E-mail: alpina@alp.ru

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi reyting yakuniy baholash bosqichida yozma ish usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal 55 va unda yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) hisoblanadi.

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. -T.: Adolat, 1999.
3. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. Beganov V.S., Qurolov M.Ya., Shaulov D.I., Kan U.T. Finansovaya politika, nalogi i nalogooblojenie. -T.: Mir ekonomiki i pravo, 1998.
6. Brizgalin A.V. Nalogi i nalogovoe pravo. - M.: Analitika press, 1999.
7. Yo'ldoshev M., Tursunov E. Soliq huquqi. -T.: 2000.
8. Nalogi i nalogooblojenie. Praktikum. Ucheb. pos. – M., 2000.
9. Shaulov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.
10. Xvan L.B. Soliq huquqi -T.: Konsauditinform 2000.
11. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti -T.: G'ofur G'ulom, 2000.
12. Sergeev I., Shipilin A. Operativnie finansovoe planirovanie na predpriyatii. –M.: Finansi i statistika, 2002.
13. Morozova T.G., Pikulkina A.V. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Ucheb. pos. – M.: YuNITI-DANA, 2000.
14. Karavaeva I. Nalogovoe regulirovanie rinochnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. –M.: YuNITI-DANA, 2000.
15. Solovev I. Nalogovie prestupleniya: praktika raboti organov nalogovoy politsii i sudov. –M.: IDFBK-PRESS, 2002.
16. Kochetkov A. Analiz nalogovix oshibok. Ucheb. pos. –M.: Delo i servis. 2000.
17. Malikov T.S. Soliqqa tortishning dolzarb muammolari. -T.: Akademiya, 2002.
18. Beganov V. va boshq. Moliya siyosati, soliqlar va soliq solish. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi. -T., 1999.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligi bo'yicha normativ aktlar to'plami. 1-2 qism. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi. -T., 2002.
3. 2002 yil soliqlari va majburiy to'lovlar bo'yicha ma'lumotnoma. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi. -T., 2002.
4. Almardonov M., Amonov A. Soliqni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. -T.: TMI, 2002.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari pragnozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2002 yil 30 dekabrda 455 son qarori.
6. Bogataya I., Karalyova N., Kuznetsova L. Kak minimizirovat vashi nalogi. -M.: Feniks, 2001.
7. Soliq to'lovchining jurnali. 2002-2003 yil sonlari.
8. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2002-2003 yil sonlari.
9. Regionalnie i mestnie nalogi i sbori. -M.: Berator-Press, 2002.
10. Medvedov A. Optimizatsiya nalogooblojeniya v 2002 g. -M.: MIFER, 2002.